

TARIXDA RANGTASVIRDA ISHLASH USULLARI.

Shahrisabz davlat pedagogika institutining

*Ijtimoiy fanlar fakulteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-
bosqich 2-21 guruh talabasi*

Jovliyeva Orasta

Ilmiy rahbar: Haydarova. M

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimda rangtasvirning paydo bo‘lishi, rangtasvir bilan ishlash usullari yoritib berilgan. O‘zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san’ati o‘ziga xos, bebaho namunalarga ega. Bulardan eng qadimiylari ibtidoiy Zarautsoy, Sarmishsoy kabi joylarda uchraydigan rangtasvir san’atlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Zarautsoy, primitiv, siluyet, relyef, rangtasvir, perspektiva, oltin qoyasi, chizma tasvir, tasviriy san’at.

Qadimgi rangtasvir san’ati. O‘zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san’ati o‘ziga xos bebaho namunalarga ega. Bulardan eng qadimiylari ibtidoiy Zarautsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlardir. Rangtasvir san’atidagi keyingi yutuqlarni qadimgi kulolchilik namunalari bo‘laklarida, ayniqsa, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning dvorlariga saqlanib qolgan suratlarda batafsilroq ko‘ramiz. Tasvirlashga bo‘lgan qiziqish insonlarni qadimdan o‘ziga jalb etib kelgan. Chunki, u ibtidoiy davr odamlariga o‘zaro muloqot qilish, so‘zlashish uchun zarur bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug‘ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ovlaganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo‘llarini kuzatib, qoya va g‘orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt

o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyati rivojlanishi natijasida har xil ov manzaralari o'ziga xos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.

Zarautsoy(Surxondaryo) g'oridan topilgan tasvirda odamlarning yovvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborish kbilar tasvirlangan. Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik, naturaga nisbatan bo'lgan kuzatuvchanlik holatlari kishini lol qoldiradi. Bu tasvirlar qdimgi tosh asri (mezolit)ga tegishli. 1957-yilda Xo'jakentda topilgan,toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazavordir. Uning o'lchami bug'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metrni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yovvoyi buqa rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shaklida bo'lib,toshning bo'rtmaligi relyefi hisobga olinib ishlangan.Bu ikki tasvir so'nggi paleolit davriga tegishlidir. Rasm chizishga ishtiyoq kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bo'yash oraqali yana ham rivojlandi. Eng avvalo.sopol idishlarga naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'ldi.Shu tariqa tasvirlar ishlashning yangi usullari ham yuzaga keldi. Endi shogird hunarmand-ustozining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib, undan yo'l-yo'riq o'rganar edi. Shogirdning ustoz ko'rstamalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom etishiga sabab bo'ldi. Ushbu dastlabki usullar aniq ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi.Tasviriy san'atga o'rgatish va maktablar tashkil qilish ancha keyin boshlandi. Pamfil tasviriy san'atni,xususan,chizmatasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan,nazariy va ilmiy uslubini ishlab chiqdi. Uning uslubi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to'liq o'tish davri o'n ikki yil davom etgan. Qadimgi yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idrok etishni,uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan lazzatlanishni o'rgatar edilar. Yunon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda fan sifatida kiritilishi,haqqoniy tasvirlash asoslarini yoshlarga o'rgatishda ular tarbiyasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda, tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. O'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalarini yig'ib, keng ommaga namoyish qilishni odat qilganar. Bu hol Sezar hukmronligi davrida ko'p amalga oshirilgan. Yunon san'atkorlaridan farqli o'laroq, Rim san'atkorlari o'qitish tizimiga hach bir yangilik kiritmadilar. Florensiyalik me'mor Leon Battisto Alberti ham chizmasvir va uni o'qitish usullariga katta e'tibor berdi. Xususan, uning "Rangtasvir to'g'risida uch kitob" nomli mashhur asarlar to'plamida yozilishicha, ranglar bilan ishlashni o'rganishdan avval, rassom chizmasvirni mukammal bilishi zarurligini aytadi. Alberti tasviriy san'atga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi. Tasviriy san'at usullarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o'z hissasini qo'shdi. Uning "Rangtasvir haqidagi kitobi"da olamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, haykaltaroshlik chiziqli va fazo perspektivasi haqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'ramiz. Uyg'onish davri rassomlari jahon tasviriy san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. XVII asr tasviriy san'atni o'qitish uslubiyati chizmasvirning fan sifatida to'la-to'kis akademik tarzda davvom ettirish uchun imkon yaratdi. Akademik chizmasvirning pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi "Chizmasvir akadimiyasi"da ishlab chiqildi. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya badiiy maktablarning rivojlanish markaziga aylandi. Fransuz akadimiyasi badiiy ta'lim-tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib keldi. Ayniqsa, u yerda akademik chizmasvirda ishlash borasida talaygina uslubiy yangiliklar yaratilgani ma'lum. Chizmasvir va uning o'qitilish usullarini rivojlantirishga mashhur fransuz rangtasvir ustasi Jak Lui David ham katta hissa qo'shdi. Tasvir bajarishda deb, ta'kidlaredi u: "Har bir bo'lak mukammal, aniq ishlanish shu bilan bir qatorda ushbu qism yaxlit bir butunlikni tashkil etishi lozim". Inson qomatini tasvirlashda avval uning ichki tuzilish-skeletini chuqur o'rganib, tashqi qiyofasini chizishga o'rgatar edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiya yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiya ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim

berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish usulida qurilgan edi. O'qituvchi professorlar o'zining xususiy maktabini targ'ib etish maqsadida, o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni "Eskirib, bir yerda qotib qolgan" deb hisoblab, ko'p hollarda o'zlari yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim beradilar. Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar taklif etilib, ular na kurslarga va na guruhlariga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagi tarzda olib borilgan edi: katta xonaning bir necha joyida natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan holda tahsil olar edilar. Biz atrofga qalb ko'zi bilan qaray olsak, tabiatni, borliqni his qila olamiz, undagi mo'jizalarni va turf axil ranglarni ko'ra olamiz. Biz bilamizki, inson bu qadar go'zallikni o'z qo'li bilan yarata olmaydi, ammo uni qog'ozga mahorat bilan tasvirlay oladi. Biz bu so'zlarni aytayotganimizda hayolimizga beixtiyor tasviriy san'atni keltirishimiz mumkin. Odam paydo bo'lib, uning ongi rivojlanibdiki, tasviriy san'at ham paydo bo'ldi. Ya'ni, insonlar o'z qilayotgan ishlarini devorlarga, toshlarga tasvirlay boshlashdi. Ular ov mashg'ulotlari, biror yirqich hayvon yoki, qushning o'ljasiga tashlanayotganini chinakam go'zallik va qobiliyat bilan tasvirlab berishgan va shu bilan birga tasviriy san'atning tur va janrlari rivojlana boshladi. Tasviriy san'atning eng katta turi bu rangtasvir san'ati. Rassom rangtasvirda ishlayotganida borliqni rang-barangligini ko'rishi va albatta ranglarni yaxshi ajrata olishi ham lozim. Ranglarni ko'rish bilan bir qatorda soya va yorug'larni ham ajrata bilishi kerak. Har bir buyum yoki obyektning rangi yorug'likda ham, soyada ham butun rang bilan bog'liq bo'lishi kerak, ya'ni, ranglarni yaxlit ko'ra olishi kerak. Agar yaxlit ranglarni qo'ya olmasa, har-bir obyekt alohida-alohida ajralib ko'rinadi. Shuning uchun yaxlitlikni yo'qotib qo'ymasligi kerak. Mahoratli rassomning ko'zi bir qancha ranglarni, soya va yorug'larni ajrata oladi. Rassom ranglarni faqatgina ko'ra olishi emas, balki idrok qilishi ham kerak.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atning rangtasvir yo'nalishi kecha yoki bugun paydo bo'lgan yo'nalish emas baki, bir necha asrlar avval paydo bo'lgan va hozirgi

kungacha rivojlanib kelayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Uning bugungi kunga qadar bir qancha tur va janrlari ham paydo bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N.U. San’at tarixi. T.: O‘qituvchi, 1986.
2. Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. T., 1995.
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at atamalari. T., 2003.
4. Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishlash. T.: O‘qituvchi 1981.
5. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. T.: Fan nashriyoti, 2004.
6. Toshpo‘latovich, Y. O. (2022). INTERPRETATION OF SMART TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 23-31.